O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODEL.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
РЕКЛАМА ХИЗМАТЛАРИ BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQUARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruz Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdurkarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivoxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQUARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	



SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHLTLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHLTLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1695
Тугалов Бобур Қаршибой угли	
DYUZDO SPORTIDA JAROHATLAR PROFILAKTIKASI VA TIBBIY TIKLANISH USULLARINING SAMARADORLIGI.....	1699
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR	1703
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODELI	1709
G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улуғбек ўғли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	1731
Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi	
O'RMON XO'JALIGINI MOLİYALASHTIRISHDA MOLİYAVIY RESURLAR VA MANBALAR.....	1737
Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna	
ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI.....	1743
Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna	
KORXONA FOYDASI VA UNING RAQOBATBARDOSH NARX SIYOSATINI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	1748
Axmadjonov Murodjon Axadjon o'g'li	
DEVELOPMENT PRIORITIES FOR THE FRUIT AND VEGETABLE SECTOR IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S FOOD SECURITY POLICY	1754
Nazarova Munavvar Soatmurod qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA HR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1761
Xamroyeva Kumush Alisherovna	
QURILISH SANOATIDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI.....	1768
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
TURISTIK DESTINATSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	1772
Bekberganov Izzat Hurmat o'g'li	
TRANSPORT XIZMATLARI BOZORI TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI	1775
Jo'rayeva Shahzoda Farhod qizi	
O'ZBEKISTONDA QURILISH MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQRADIGAN KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGI TAHLILI	1781
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK MAHSULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI.....	1788
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
PR-BO'LIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TARKIBIY-FUNKTSIONAL YONDASHUVLARI.....	1792
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	
TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS TENDENSIYALARI	1797
Xujakulova Odina Valijonovna	
DAVLATNING IQTISODIY MUVOZANAT VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI.....	1805
Uzoqov Bekzod Bozor o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MAHALLIY MODA BRENDINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	1810
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN	1817
Sadinova Maqsuda Azamjonovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI	1824
Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1832
Djurayev Laziz Tursunboyevich	
TA'LIM TASHKILOTLARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETINGNING ROLI	1836
Raximov Faxriddin Shavkatovich, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
TURIZM INDUSTRIYASI VA TURIZM INFRATUZILMASINING MOHIYATI HAMDA TARKIBIY QISMLARI	1844
Mo'minova Mavjuda Sharifovna	
МОДЕРНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1849
Бозорова Озода Рахимовна	
EKSPORT FAOLIYATINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1854
To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	1859
Tulyaganova Aziza	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INVESTISIYALARNI YO'NALTIRISHDA QULAY INVESTISION MUHITDAN OQILONA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1864
Xikmatov Xayrullaxon Maxmurxonovich, Bo'riyev Lochinbek Ortiqbopoyevich	



MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INVESTISIYALARNI YO'NALTIRISHDA QULAY INVESTISION MUHITDAN OQILONA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

**Xikmatov Xayrullaxon Maxmurxonovich**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
Namangan viloyati hududiy filiali bosh mutaxassisi

**Bo'riyev Lochinbek Ortiqbopoyevich**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
Namangan viloyati hududiy filiali bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Maqolada kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish yo'llari va istiqbollari hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qulay investitsion muhitdan samarali foydalanish imkoniyatlari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion muhit, kichik biznes, investitsion faoliyat, iqtisodiy faoliyat, investitsion jozibadorlik, samaradorlik.

Abstract. The article presents ideas and reflections on ways and prospects for improving the attraction of investments to small business sectors and on the possibilities of effectively utilizing a favorable investment climate in attracting foreign investments.

Key words: investment, investment climate, small business, investment activity, economic activity, investment attractiveness, efficiency.

Аннотация. В статье изложены идеи и соображения о путях и перспективах совершенствования привлечения инвестиций в сектор малого бизнеса, а также о возможностях эффективного использования благоприятного инвестиционного климата при привлечении иностранных инвестиций.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционный климат, малый бизнес, инвестиционная деятельность, экономическая деятельность, инвестиционная привлекательность, эффективность.

KIRISH

Mamlakatimizda bugungi kunda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning hal qiluvchi omili sifatida investitsiya faoliyatining o'rni muttasil ortib bormoqda hamda zamonaviy sharoitda kichik biznes subyektlari uchun ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Maqsadli investitsiya faoliyati kichik biznes subyektlarining har qanday tarmog'ini rivojlantirishning zaruriy shartidir. Shu bilan birga, korxonalarning



samarali iqtisodiy faoliyati ma'lum darajada investitsiyalar shakllari va hajmiga bog'liq, chunki ular korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatini yangi ilmiy-texnika bazasi asosida shakllantiradi. Ya'ni, ular texnik taraqqiyotning o'sishini rag'batlantiradi, bu esa o'z navbatida milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlaydi va mikro hamda makro darajada iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari sifatini oshiradi.

Investitsion faoliyatni boshqarishning samarali tizimi korxonani rivojlantirishning umumiy iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishni yetarli miqdordagi investitsiya resurslari bilan, aniq belgilangan shartlarda, minimal xarajatlar va maqbul darajadagi xavf bilan ta'minlash orqali uning investitsion jozibadorligini oshirishga qodir. Bu esa mazkur tizim orqali kichik biznes subyektlarining investitsiya faoliyatini boshqarishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Investitsion faoliyatni boshqarishga tizimli yondashuv tizimning asosiy tarkibiy qismlariga immanentligi bilan belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalarni tahlil qilish bo'yicha ilmiy adabiyotlarda asosan uchta yo'nalish ajralib turadi: korporativ darajadagi rag'batlar, makroiqtisodiy va lokal muhitning afzalliklari hamda davlat institutlarining samaradorligi. John H. Dunning tomonidan ishlab chiqilgan OLI (Ownership – Location – Internalization) paradigmasi aynan shu uch omilning o'zaro bog'liqligini tizimli tarzda izohlaydi va investitsiya oqimlarining mexanizmini chuqur tahlil etadi. Ushbu paradigma ko'plab tadqiqotlarda transmilliy korxonalar faoliyatini va ularning mamlakat tanlovini tahlil qilishda asosiy nazariy asos sifatida qo'llanadi.

Empirik tadqiqotlar chet el investitsiyalari (FDI) va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni keng ko'lamda yoritadi. E. Borensztein, J. De Gregorio va J.-W. Lee o'tkazgan tadqiqotlarda FDI texnologiya transferi orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi, biroq bu jarayonning samaradorligi mamlakatdagi inson kapitali darajasiga bevosita bog'liqligi ta'kidlangan. Ya'ni, investitsiyalarning iqtisodiy samarasini oshirish uchun malakali mehnat resurslari asosiy omil sifatida e'tirof etiladi.

L. Alfaro, A. Chanda, S. Kalemli-Ozcan va S. Sayekning izlanishlari esa FDI samaradorligi moliyaviy bozorlarning rivojlanish darajasiga ham bevosita ta'sir etishini ko'rsatadi. Ularning tahlillariga ko'ra, rivojlangan moliyaviy infratuzilmaga ega mamlakatlar chet el investitsiyalaridan ko'proq foyda oladi, aks holda FDI o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Shu bois investitsion siyosat faqat soliq imtiyozlari yoki grantlar bilan cheklanmasdan, moliya tizimini mustahkamlash va investitsiya oqimlarini samarali boshqarish mexanizmlarini ham qamrab olishi zarur.

Adabiyotlarda investitsion muhitning barqarorligi va jozibadorligida institutlarning roli alohida ta'kidlanadi. Kaufmann va uning hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan Worldwide Governance Indicators (WGI) metodologiyasi shuni ko'rsatadiki, boshqaruv sifati, qonun ustuvorligi va korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar investorlarga eng muhim ishonch signalini beradi. Daron Acemoglu va James Robinsonning "Why Nations Fail" asarida esa inkluziv institutlar mavjud bo'lgan davlatlarda investitsiyalar ko'proq jalb qilinishi va iqtisodiy barqarorlik yuqori bo'lishi isbotlangan.

Milliy raqobatbardoshlik nuqtayi nazaridan Michael Porter tomonidan ilgari surilgan "Millatlar raqobat ustunligi" konsepsiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Porterning ta'kidlashicha, investitsiyalarni jalb qilishda yuqori qo'shimcha qiymatga ega tarmoqlarni rivojlantirish, klaster siyosatini qo'llash va yetkazib beruvchilar hamda iste'molchilar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish mamlakat raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan UNCTAD, Jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hisobotlari global investitsiya oqimlarida sezilarli o'zgarishlarni qayd etmoqda. Ularning ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda geosiyosiy ziddiyatlar, proteksionistik siyosatlar va moliyaviy beqarorlik FDI hajmining pasayishiga sabab bo'lgan. Shu bois mamlakatlar, jumladan O'zbekiston ham, investitsion muhitni yaxshilashda global risklarni diversifikatsiya qilish siyosatini yuritishi zarur.

O'zbekiston bo'yicha xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda so'nggi yillarda investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirilgani qayd etilgan. Jahon banki va AQSh Davlat departamentining ma'lumotlariga ko'ra, normativ-huquqiy muhit soddalashtirilmoqda, davlat xususiy sheriklik mexanizmlari kengaymoqda va chet el investorlariga kafolatlar kuchaymoqda. Shu bilan birga, reglamentlarning barqarorligi, sud tizimi mustaqilligi va korporativ boshqaruvning oshirilishi istiqboldagi asosiy vazifalar sifatida belgilanmoqda.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar va amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qulay investitsion muhitni shakllantirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim omilidir. Inson kapitalining rivojlanishi, moliyaviy tizimning barqarorligi, shaffof institutlar va siyosiy izchillik investitsiyalarni oqilona yo'naltirishda asosiy mezonlar hisoblanadi. O'zbekiston uchun esa bu yo'nalishda strategik klasterlarni rivojlantirish, investitsiyalarni yuqori texnologiyali tarmoqlarga yo'naltirish va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.




TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Jahon banki hamda UNCTADning ochiq ma'lumotlar bazalaridan olindi. Olingan statistik ma'lumotlar dinamik qatorlar, korrelyatsion-regression tahlil hamda komparativ yondashuv usullari orqali qayta ishlanib, investitsion muhit va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Investitsion faoliyatni boshqarishga tizimli yondashuv zarurati tizimning asosiy tarkibiy qismlarining unda immanent ekanligi bilan belgilanadi. Ular quyidagilardan iborat: maqsad (qo'yilgan natijaga erishish), funksiyalar (investitsiya va moliyaviy imkoniyatlarni tadqiq qilish va baholash, muqobil variantlarni tanlash, eng yaxshi alternativani amalga oshirish rejasini ishlab chiqish, rejaning bajarilishini nazorat qilish va monitoring qilish, chetlanishlarni tartibga solish va tuzatish va boshqalar), oqimlar (investitsiyalar, moliyaviy resurslar va tizimning alohida elementlari o'rtasidagi ma'lumotlar), tuzilma (harakatning umumiy rejasini, uning doirasida tizimning alohida elementlarining umumiy maqsadi va vazifalari o'rtasida muvofiqlashtirish amalga oshiriladi), hamda tizimning samaradorligi (istalgan natijani olish) (1-rasm).



1-rasm. Investitsion faoliyatni boshqarishga tizimli yondashuv tizimining asosiy tarkibiy qismlari

Shuning uchun kichik biznes subyektlarining investitsiya faoliyatini boshqarish tizimi yuqori samaradorlikka ega bo'lishi lozim. Har bir mijoz o'z maqsadlariga erishish uchun investitsiya jozibadorligini oshirishga intiladi. Investor — kelajakda foyda olish maqsadida mumkin bo'lgan investitsiya variantlarini ishlab chiqish va asoslash, shuningdek, ulardan samarali foydalanishni ta'minlashga harakat qiladi. Korxona esa investitsiya jozibadorligini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda ulardan foydalanish samaradorligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshirish natijalaridan foydalanadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish korxonasining investitsion jozibadorligini shakllantirishning yana bir muhim sharti — bu uning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligidir. Korxonaning investitsiya faoliyati samarasi va samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi shaklda ko'rsatilgan (2-rasm).



2-rasm. Korxonaning samaradorligi va investisiya faoliyati samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik

Shuningdek, korxonaning investitsiyalarni boshqarish tizimi o'ziga xos elementlarga ega bo'lib, ularning mavjudligi tizimning yaxlitligini va ular o'rtasidagi samarali o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi. Uning eng muhim elementlari haqida Stetsyuk quyidagilarni ta'kidlaydi:

- ehtiyoj (ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun har xil turdagi iqtisodiy resurslar, jumladan, investitsion resurslar bilan ta'minlash zarurati);
- motiv (investitsiya resurslarining vaqtinchalik va fazoviy harakati hamda ularni investitsiya resurslarining transformatsion sifati asosida korxonada mahalliyashtirish);
- maqsad (korxonaning investitsiya strategiyasini amalga oshirish orqali uning faoliyat natijalarining belgilangan mezonlariga erishish);
- obyekt (korxonaning investitsiya resurslari);
- subyekt (investorlar);
- maqsad (mavjud investitsiya resurslarini oqilona jalb qilish va ulardan samarali foydalanish);
- tamoyillar (tizimli yondashuv, yaxlit tizim, joriy boshqaruvning strategikligi va harakatchanligi, amalga oshirish ssenariylarining o'zgaruvchanligi, samaradorlik hamda investitsiya jozibadorligiga e'tibor);
- vazifa (ishlab chiqarish va investitsiya faoliyati uchun investitsiya resurslarining o'z vaqtida va yetarli hajmini ta'minlash);
- shakllar (investitsiya resurslarining sifat tarkibi va ularni shakllantirish manbalari);
- usullar (o'zini o'zi ta'minlash, aralash moliyalashtirish, davlat investitsiyasini qo'llab-quvvatlash, imtiyozli soliqqa tortish, olingan natijalarni har tomonlama baholash, tahlil qilish va izohlash, rejalashtirish hamda prognozlash, investitsiya resurslari, xarajatlari va natijalarini taqsimlash, narxlarni belgilash, investitsiya risklarini boshqarish, sug'urta mexanizmlaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi vosita va uslublarni qo'llash);

- mablag'lar (yetarli hajmdagi investitsiya resurslarining turli manbalariga maqbul kirish imkonini yaratadigan va ularni jalb qilish xarajatlarini qoplash imkonini beradigan ijobiy sof pul oqimlarini shakllantirish).

Muallifning fikriga ko'ra, yuqorida sanab o'tilgan elementlar biz ilgari keltirgan investitsion faoliyatni boshqarishga tizimli yondashuvning asosiy tarkibiy qismlariga uyg'un keladi. Kichik biznes subyektlarining investitsiya faoliyatini boshqarish tizimi, avvalo, investitsiya obyektlarini aniqlash, tanlash va shu asosda investitsiya portfelini, investitsiya dasturlari hamda loyihalarini shakllantirish, korxonaning normal faoliyat yuritishi va istiqbolli rivojlanishining moliyaviy sharoitlarini saqlash hamda yaxshilash vazifalarini bajarishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, dastur va loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan investitsiya resurslari manbalarini izlash vazifasini ham hal etadi.

Korxonani boshqarish tizimida keng qo'llaniladigan eng oddiy va samarali statistik usullardan biri tabaqalanish usulidir. Ushbu usulga ko'ra ma'lumotlar tabaqalashtiriladi, ya'ni qabul qilingan mezonlarga ko'ra guruhlariga ajratiladi va har bir guruhdagi ma'lumotlar alohida qayta ishlanadi. Belgilariga ko'ra guruhlariga bo'lingan ma'lumotlar qatlamlarga ajratiladi, bu jarayon tabaqalanish deb ataladi.

Sanoat ishlab chiqarishining o'sishi bilan bir qatorda kichik biznes subyektlari faoliyati ekologik muammolar bilan ham murakkablashmoqda, bu esa qishloq xo'jaligi korxonalarining raqobatbardoshligiga ham, aholining hayot sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ishlab chiqarishda tabiiy muhitni saqlab qolish deganda, innovatsion texnologik, boshqaruv, huquqiy va boshqa tizimlarni joriy etish bo'yicha maqsadli faoliyat tushuniladi. Bu jarayon bir vaqtning o'zida atrof-muhit sifatini yaxshilash bilan birga, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kichik biznes subyektlari ishlab chiqarishini ekologiyalashtirish muammosini samarali hal etish investitsiya va innovatsion faoliyatni ekologik yo'nalishda rivojlantirishsiz mumkin emas. Shuni ta'kidlash lozimki, ekologik investitsiyalar — bu xo'jalik faoliyatining barcha sohalarida atrof-muhitga zararli ta'sirni kamaytirish imkonini



beruvchi o'zgartirilgan ishlab chiqarish va boshqaruv texnologiyalari, asbob-uskunalar, materiallar va boshqa vositalarga yo'naltirilgan sarmoyalardir.

Eng keng tarqalgan ekologik investitsiyalar quyidagilardir: eng yuqori ekologik standartlarga javob beradigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga investitsiya kiritish; ishlab chiqarishning ekologik samaradorligini oshirish imkonini beruvchi yangi texnologiyalarni joriy etishga sarmoya kiritish; energiya resurslari hamda tabiiy xomashyo iste'molini kamaytirishga investitsiya kiritish (an'anaviy xom ashyoni almashtirish); tabiatning degradatsiya jarayonlarini sekinlashtiradigan texnologiyalarga investitsiya yo'naltirish; ishlab chiqarishdagi buzilishlarni kamaytirishga va chiqindilarni qisqartirishga sarmoya kiritish.

Investitsiya obyektini tanlashda asosiy e'tibor kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlardan olinadigan daromadni qayta yo'naltirishga, shuningdek, investitsiya masalalariga yondashuvlarni farqlashga qaratilishi kerak. Investitsiya resurslari taqchilligini bartaraf etish esa ichki va tashqi moliyalashtirishning barcha mavjud manbalarini safarbar qilishni talab etadi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining ichki manbalaridan faol foydalanish uchun moliya-kredit tizimi hamda davlat budjeti imkoniyatlarini mustahkamlash zarur. Kichik biznes subyektlarining moliyaviy salohiyatini mustahkamlash uchun esa vaqt talab etiladi. Shu sababli, yaqin kelajakda O'zbekiston iqtisodiyotining boshqa tarmoqlaridan investitsiyalarni, shuningdek, xorijiy kreditorlar va investorlarning mablag'larini jalb etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Buning isboti sifatida Namangan viloyati kichik biznes subyektlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarishini aks ettiruvchi (1*) regressiya tenglamasi ko'rsatkichlari keltirilgan:

$$KBMH = \frac{AKO'I^{0,013} * THE^{0,14} * SMT^{1,24} * e^{15.501525}}{TBS^{2,6}} \quad (1^*)$$

va tanlangan omillarning har birini $t=19$ ga teng bo'lgan vaqtga bog'liq tenglamalar tizimidan:

asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiya - $AKO'I = -402.1 + 787.3 * t$;

tarmoqda bandlar soni - $TBS = 468.3 + 30.8 * t$;

tarmoq eksporti - $TEH = -15.1 + 15.8 * t$;

sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi - $SMT = -1577.9 + 1364.8 * t$
formulalaridan foydalangan holda Namangan viloyati kichik biznes subyektlari ishlab chiqarish hajmining ko'p omilli prognozini aniqlaymiz (1-jadval).

1-jadval. Namangan viloyati kichik biznes subyektlari ishlab chiqarish hajmining ko'p omilli prognozi

Yillar	Kichik biznes subyektlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiya, mlrd. so'm	Tarmoqda bandlar soni, ming kishi	Tarmoq eksporti, mln. AQSh dollari	Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi, mlrd. so'm
2022	25292,0	13769,3	1022,7	269,3	22988,5
2023	25188,3	14556,6	1053,5	285,1	24353,3
2024	25040,9	15343,9	1084,3	300,9	25718,1
2025	24857,7	16131,2	1115,1	316,7	27082,9
2026	24645,5	16918,5	1145,9	332,5	28447,7
2027	24409,7	17705,8	1176,7	348,3	29812,5

Namangan viloyati kichik biznes subyektlari ishlab chiqarish hajmining ko'p omilli prognoz qiymatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2027-yilga borib kichik biznes subyektlari ishlab chiqarish hajmi 2022-yilga nisbatan 3,6 foizga qisqarib, 24 409,7 mlrd so'mga teng bo'lishi kutilmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida bu davrga kelib tarmoqda bandlik darajasining bazis yilga nisbatan 22,2 foizga oshib, 1 176,7 ming kishiga yetishi va mahsulot tannarxining 22,9 foizga ko'tarilib, 29 812,5 mlrd so'mga teng bo'lishi bilan izohlash mumkin.

Bunday natijaning oldini olish uchun mamlakatning o'z investitsiya resurslarini to'plash chora-tadbirlari qatorida korxonalarga vakolatli banklarda soliq solishdan ozod qilingan maxsus investitsiya hisobvaraqlarini ochish huquqini berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu hisobvaraqlardan faqat investitsiya maqsadlarida — uskunalar va mexanizmlar sotib olish, ishlab chiqarish obyektlarini qurish va modernizatsiya qilish uchun foydalanish taklif etiladi. Shu bilan birga, xorijiy investorlarni jalb etish bilan bir qatorda kichik biznes



subyektlarining o'zlarida ham investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning maqsadli ishlatilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish zarur.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi korxonaning investorlar tomonidan tan olingan iqtisodiy salohiyatini ifodalaydi, bu esa o'z navbatida uning investitsion jozibadorligini belgilovchi muhim omildir. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning faoliyati innovatsion texnologiyalar, ilg'or boshqaruv usullari va uslubiyatlarni joriy etish bilan birga kechadi. Bu holat kichik biznes subyektlaridan ham bozordagi o'z mavqeini saqlab qolish uchun texnologik va tashkiliy innovatsiyalarni faol joriy etishni talab qiladi.

Investitsion faoliyatni faollashtirish ko'p jihatdan strategik yo'nalishlarning asosligi, investitsiya taktikasi, investitsion muhitning barqarorligi, investitsion jozibadorlik darajasi hamda muayyan kichik biznes subyektlari ishlab chiqarishiga investitsiya kiritish mexanizmlarining mukammalligi bilan belgilanadi. Kichik biznes korxonalarini investitsiyaviy rivojlantirish bo'yicha taklif etilayotgan boshqaruv chora-tadbirlari ishlab chiqarishni barqarorlashtirish, real sektorni yanada samarali rivojlantirish va kichik biznes subyektlariga qo'shimcha investitsiya manbalarini jalb etishga qaratilgan.

Har bir korxonada ichki manbalar hisobidan investitsiyalar o'sishini ta'minlaydigan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarur, deb hisoblaymiz. Bularning asosiy yo'nalishlari — kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilish choralari kuchaytirish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmini ko'paytirish va sifatini yaxshilashdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahsulot tannarxining oshishi hozirgi kunda korxonalarda foydalanilayotgan asosiy vositalarning eskirganligi, yangi tejamkor texnologiyalarning yetishmasligi hamda elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlar bilan bog'liq. Shu sababli, korxonalarda ishlab chiqiladigan rivojlantirish dasturlarida bu omillarni albatta e'tiborga olish lozim.

Xorijiy sarmoyalarni tartibga solishda ishlab chiqarish tarmoqlarini taqsimlash mezonlari, eng avvalo, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tamoyillariga asoslanishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, xomashyo, energetika va moliya sohalariga xorijiy investitsiyalarni kiritish ma'lum darajada cheklanishi maqsadga muvofiq. Buning o'rniga ushbu tarmoqlarda investitsiya daromadlarining kamayishini ichki manbalar hisobidan qoplash mexanizmini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

O'tkazilgan tahlillar natijasida qo'shilish va qo'shib olish jarayonlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini chuqur o'rganish ularni takomillashtirish vazifalarini aniq belgilash va davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'nalishlarini shakllantirish imkonini berdi. Investitsiya resurslari oqimini rag'batlantirish hamda ishlab chiqarishning milliy xususiyatini saqlab qolish zarurati milliy iqtisodiyotga bilvosita moliyaviy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini ishlab chiqishning dolzarbligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Turgunpulatovich, A. O., & Sirojiddin o'g'li, N. N. (2022). Definition of investment strategy for sustainable development of regional economies. *Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review*, 11(09), 19–29. ISSN: 2319-2836. Impact Factor: 7.603.
2. Turgunpulatovich, A. O. (2022). Formation of financing technology and communication relations in increasing the competitiveness of small business entities. *International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research*, 11, 49–58. ISSN: 2277-3630. Impact Factor: 7.429.
3. Turgunpulatovich, A. O. (2022). The concept of shaping the competitiveness of small businesses and its essence. *International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research*, 11, 171–178. ISSN: 2277-3630. Impact Factor: 7.429.
4. Turgunpulatovich, A. O. (2022). The concept of forming the competitiveness of small business entities and its essence. *Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review*, 11(07), 46–55. ISSN: 2319-2836. Impact Factor: 7.603.
5. Turgunpulatovich, A. O. (2022). Modern trends in the formation of international competitiveness of the national economy. *International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research*, 11, 69–79. ISSN: 2277-3630. Impact Factor: 7.429.
6. Oybek, A., & Lazizbek, A. (2021). The main features of light industry in the economy of Uzbekistan. *Academicia Globe*, 2(07), 127–132.
7. Oybek, A., & Lazizbek, A. (2021). Ensuring economic security is sustainable is an important factor in development. *Academicia Globe*, 2(07), 115–120.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>